



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING**  
**Q A R O R I**

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2021 - yil 22 - oktabr

170-8-0-Q/21

Surxondaryo viloyati hokimligi

**Termiz tumani “Surxon Do‘stlik sarhadi” massivi “Sabzipoya” mahallasi hududidan  
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Surxondaryo viloyati bo‘yicha boshqarmasiga  
ozuqabop ekinlar ekish uchun yer maydoni ajratish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasiga va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-avgustdagi “Chavandozlar maktablari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5212-son qaroriga asosan Termiz tumani hokimining 2021-yil 28-avgustdagi 01-08/158-son xatini inobatga olib,

**Q A R O R    Q I L A M A N:**

1. Termiz tumani “Surxon Do‘stlik sarhadi” massivi “Sabzipoya” mahallasi hududidan O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Surxondaryo viloyati bo‘yicha boshqarmasiga tuman hokimligi zaxira yer fondidan qishloq xo‘jalik xaritasining 103e, 103d, 103j, 103g va 104-dala konturlaridagi tuproq unumdorligi 55,1 ball bonitetli jami 99,6 gektar, shundan 92,7 gektar sug‘oriladigan ekin yer, 3,1 gektar yaylov, 0,8 gektar ariq va zovurlar, 1,1 gektar yo‘llar va 1,9 gektar qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan yer maydonlari ozuqabop ekinlar ekish uchun (30 yil muddatga) foydalanish huquqi bilan ajratilsin.

2. Viloyat Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi (M.Murodov)ga ajratilayotgan yer maydonidan samarali va maqsadli foydalanilishini doimiy nazorat qilib borish yuklatilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (S.Shaymardanov) yer uchastkasi chegaralarini joyida (naturada) belgilashni amalga oshirsin va yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni hamda yer hisobotiga tegishli o‘zgartirish kiritishni ta‘minlasin.

4. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytida (surxondaryo.uz) e‘lon qilinsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari U.Turapov zimmasiga yuklatilsin.

Surxondaryo viloyati hokimi



Bobolov T.A.